

Rahmataliyeva Feruzaxon Akmal qizi

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti

o'zbek tili yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya. *Maqolada Usmon Azimning “Baxshiyona” turkumidagi she'rlari tahlilga tortilgan bo'lib, shoir ijodiy niyati va xalq usullari parallel ravishda mavjudligi dalillangan. Shoir o'zining individual usuli va xalqona yo'nalishini solishtirish orqali o'ziga xos badiiyat olamini yaratgan. Shoir xalq ijodidan ijodiy ta'sirlanib, xalqona obraz, ifoda, badiiy detallarni o'z ijodiy laboratoriyasida o'zining badiiy-falsafiy, g'oyaviy va estetik qarashlari asosida qayta ishlaganligi dalillangan.*

Kalit so'zlar: *ijodiy ta'sir, xalqona obraz, xalqona uslub, ifoda yo'sini, badiiy detal*

O'ziga xos ovozi va uslubiga ega bo'lgan shoir Usmon Azim ijodiga nazar tashlasak, folklor an'analari ruhida yaratilgan she'rlarini kuzatishimiz mumkin. Ayniqsa, uning baxshiyona uslubidagi turkum she'rlarini tahlilga tortar ekanmiz, professor N. Rahimjonovning quyidagi fikrlarini keltirib o'tish joiz: “Folklorning lirik va epik an'analarni davom ettirayotgan, uning mundarijasini axloqiy masalalar talqini bilan boyitayotgan ikkiliklar, uchliklar, sakkizliklar va baxshiyonalar adabiy jarayonda janr va uslub jihatdan original izlanishlar kechayotganligidan dalolat beradi” (1.194) Shoir xalq og'zaki ijodidagi Alpomish, Elbek baxshi, Oytuman, Elomon, Qorabotir, Qaldirg'och oyim, Oqbotir, Fozil shoir kabi obrazlar hamda Boysun-Qo'ng'iroq, Qolmiq yurti kabi makonlarni jiddiy qayta ishlab, o'z she'rlarida ifodalashi natijasida xalq va jamiyat oldida turgan bir qator muammolarga e'tibor qaratdi. “Baxshiyona” (2) turkumiga kirgan va Elbek baxshi taklifi bilan el kezib qaytgan Elomonning so'zini fikr isboti uchun tahlilga tortamiz:

Maysaga ezmayman, deb aytdim.

Daraxtga kesmayman, deb aytdim,

Tuproq'imga, sen deb o'lsam,

Og'riqni sezmayman deb aytdim. (2.185)

Avvalo, aytish kerakki, asar boshlanmasi xuddi xalq dostonlari kabi nasriy bayon bilan boshlanadi. She'r ham soddalikdan murakkablikka, tashqi olamdan lirik subyekt ichki olamiga qarab o'sib boradi. Ularda vatanparvarlik, insonparvarlik, hayotsevarlik, sadoqat, adolatparvarlik g'oyalari, yurtga muhabbat, fidoiylik mavzulari tilga olingan. Bu g'oya va mavzular maysa, daraxt va tuproqqa nisbatan munosabatda yuzaga chiqqan. E'tibor berilsa, Elomon tilida xalqona ifoda yo'sini bor. Shoir Elbek esa shogirdining qalbidagi ko'tarinkilik va lirik kechinmaning ta'sirida qay holga tushgani esa she'r keyinidan keladigan epik bayonda izohlanadi.

She’rda Elbek baxshi obrazi alohida ahamiyatga ega bo’lib, uning timsolida biz o’zining dostonlari bilan xalq ma’naviy ustoziga aylangan, adolatparvar, xalqparvar, xaqqarvar dostonlarni ko’rishimiz mumkin:

Ustozim deganing she’rfurush chiqsa,
Suyganim deganing erfurush chiqsa,
Podshohim deganing elfurush chiqsa,-
Chidagin, bolam-a, chidagin,
Dardlaring taningga joylansin.(2.186)

Bandda ko’tarilgan ijtimoiy muammolar ifodasi bir qaraganda badiiylikdan yiroqdek tuyuladi. Biroq she’rning umumiy tuzilishidagi mazmuniy ziddiyat–she’rfurush, erfurush, elfurush Elomon formulasida yaqqol namoyon bo’lgan. Demak, shoir o’z lirik kechinmasini xalq tilidagi antiteza usuli orqali ochib bergan. Natijada she’r badiiy puxta, mazmunan teranlik va shaklan o’ziga xoslik kasb etgan.

Shoir Elbek baxshi tilidan kuylayotgan qator muammolar zamirida ham xalqonalik ko’zga tashlanadi. Buni xalq tiliga xos uslubiy vosita- badiiy murojaat va ruhiy parallelizm (yaxshimas, chidagin!, bolam-a) hamda she’rfurush, erfurush, elfurush, podshoh, vazir, amir, qozi, harom, pok kabi so’zlarda kuzatish mumkin:

Chin qolib, yolg’onlar topsa marhamat,
Yaxshimas, yomonlar topsa marhamat,
Aldamchi zamonlar topsa marhamat-
Chidagin, bolam-a, chidagin. (2.186)

Baxshi shu ruhdagi she’rni bayon qilar ekan, avvalo, shogirdini dardini ichga yutishga undaydi. Bu bir qarashda salbiy holatdir. Chunki dard birovga aytilmasa, uning davosiga chora izlanmasa, kishini ado qiladi. Biroq Elbek baxshi ana shu dard Elomonning qo’shiqlarida jaranglab xalqni ma’nan uyg’otishga harakat qilyapti. Shuning uchun to’rttala bandning so’nggida ham “Ohlaring qo’shiqqa aylansin!” degan badiiy hukmni ta’kidlagan. Mazkur misrada ham xalq og’zaki ijodidagi duo janriga xos xususiyat mavjud. Chunki u kontekstdan ajratib olinsa, duo sifatida qo’llanilishi ham mumkin.

Keyingi she’rda esa etnografik elementlar asosidagi Elbek baxshining faoliyati va kechinmalari tasvirlangan. To’y xalq marosimlaridan biridir. Kelinni nortuyada uzatib borish udum. To’yda baxshining ishtirok etishi tabiiy holat sanaladi. Karvon ham xalq turmush tarzi bilan bog’liq.

Karvon ko’rdim tuyalari bo’zlab borar,
Nortuyada mening yorim muzlab borar,
Menga bergan va’dalari esdan chiqib,
Ostonasi tillo yurtini izlab borar (2.188)

She’rning keyingi bandlaridagi ifoda mexanik tarzda boshqa xalq qo’shiqlari, doston va ertaklaridan o’zlashgandek tuyuladi. Lekin aslida unday emas. Bu xalq og’zaki ijodiga xos bo’lgan sayyor sujet, mavzu va tasvir hamda ifodalar sanaladi.

Usmon Azim ongli ravishda folklorizm usulidan foydalanib asar mazmuni va ta'sir doirasini kengaytirgan. Chunki sobiq tuzum davrida o'z milliy turmush tarzi. Milliy qadriyati, ma'naviy haq-huquqlaridan mosuvo bo'lgan, amal, turli unvon, molu dunyo uchun she'rurushlik, elfurushlik qilgan xiyonatchilar ko'paygan, sof milliy qadriyat sifatida insonga iliq munosabat yemirilayotgan edi. Shoir ana shunday muammolarni ochib berar ekan, xalqona usul va vositalardan unumli foydalangan.

Mazkur she'rlar bir qarashda xalq dostonlarining parchasidek tuyuladi. Olib borilgan tahlildan ko'rinib turibdiki, Usmon Azimning "Baxshiyona" turkumidagi she'rlarida shoir ijodiy niyati va xalq usullari parallel ravishda mavjud. Ular o'ziga xos ikki tizim sifatida butun turkumning boshidan oxirigacha ko'zga tashlanadi. Shoir o'zining individual usuli va xalqona yo'nalishini solishtirish orqali o'ziga xos badiiyat olamini yaratgan. Ular o'z muammoviy tizimi, g'oyaviy mazmuni va badiiy-estetik ideali bilan Usmon Azim qalamiga mansubdir. Shoir xalq ijodidan ijodiy ta'sirlanib, xalqona obraz, ifoda, badiiy detallarni o'z ijodiy laboratoriyasida o'zining badiiy-falsafiy, g'oyaviy va estetik qarashlari asosida qayta ishlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahimjonov N. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati. T. Fan. 2007
2. Azim Usmon. Saylanma. She'rlar. T. Sharq, 1995
3. Kollektiv. Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik. T. Fan. 1978-1979.
4. Oripova G. Mustaqillik davri she'riyatining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Monografiya. – Riga: GlobeEdit, 2020